

HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY MASALALARI



Maxmudov Dilmurod Rozmetovich

yuridik fanlar doktori, dotsent,
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi



Maxsadoev Maqsatullo Ismatovich

yuridik fanlar doktori, dotsent,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimini takomillashtirishning dolzarb nazariy va amaliy masalalari ilmiy tahlil qilingan. Xususan, "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunda belgilangan umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktika turlarining huquqiy mohiyati, ularning o'zaro nisbati hamda qonunni qo'llash amaliyotida yuzaga kelayotgan muammolar yoritilgan. Milliy qonunchilik normalari va kriminologik doktrina o'rtasidagi ayrim nomutanosibliklar aniqlanib, profilaktika shakllari, subyektlar vakolatlari, samaradorlikni baholash mezonlari va yakka profilaktikada inson huquqlari kafolatlarini kuchaytirish masalalari ilmiy asosda tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: huquqbuzarliklar profilaktikasi, umumiy profilaktika, yakka profilaktika, maxsus profilaktika, viktimologik profilaktika, jamoat xavfsizligi, kriminologiya, huquqiy islohotlar, Yangi O'zbekiston.

Аннотация. В статье проводится научный анализ актуальных теоретических и практических вопросов совершенствования системы профилактики правонарушений. Рассматривается правовая сущность общей, специальной, индивидуальной и виктимологической профилактики, закреплённых в законе Республики Узбекистан «О профилактике правонарушений», а также проблемы их соотношения и применения в правоприменительной практике. Выявляются несоответствия между нормами национального законодательства и положениями криминологической доктрины, анализируются вопросы классификации форм профилактики, распределения полномочий субъектов, оценки эффективности профилактических мер и обеспечения гарантий прав человека при осуществлении индивидуальной профилактики.

Ключевые слова: профилактика правонарушений, общая профилактика, индивидуальная профилактика, специальная профилактика, виктимологическая профилактика, общественная безопасность, криминология, правовые реформы, Новый Узбекистан.

Abstract. This article provides a scientific analysis of current theoretical and practical issues of improving the system of crime prevention. In particular, the legal essence of general, special, individual, and victimological types of prevention, defined in the Law "On Crime Prevention," their interrelation, as well as problems arising in law enforcement practice, are highlighted. Certain discrepancies between the norms of national legislation and criminological doctrine are identified, forms of prevention, powers of subjects, criteria for evaluating effectiveness, and issues of strengthening guarantees of human rights in individual prevention are analyzed on a scientific basis.

Keywords: crime prevention, general prevention, individual prevention, special prevention, victimological prevention, public safety, criminology, legal reforms, New Uzbekistan.

Jamoat xavfsizligini ta'minlash hamda jinoyatchilik va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish Yangi O'zbekiston siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Mustaqillikning dastlabki davrlaridanoq profilaktika tizimini tashkil etishga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, mazkur sohadagi huquqiy asoslarning mustahkamlanishi jamoat tartibi va xavfsizlikni ta'minlashda institutsional imkoniyatlarni kengaytirdi. Xususan, 2014-yil 14-mayda qabul qilingan *"Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"*gi qonun profilaktika sohasini konseptual va huquqiy jihatdan mustahkamladi. Unda profilaktika "huquq-tartibotni saqlash va mustahkamlash, huquqbuzarliklarni aniqlash, bartaraf etish hamda ularning sodir etilishi sabab va sharoitlarini barvaqt aniqlash va bartaraf etish maqsadida amalga oshiriladigan umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktika choratadbirlari tizimi" sifatida ta'riflanib, profilaktikaning turlari, shakllari hamda subyektlari yagona huquqiy institut sifatida belgilab berilgan [1]. Mazkur normalar huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan choralarni tizimli ko'rishga zamin yaratgan bo'lsa-da, amaliyotda qonun normalarining tatbiqi jarayonida muayyan huquqiy bo'shliqlar va institutsional nomutanosibliklar saqlanib qolmoqda.

Jahon kriminologiyasida jinoyatchilikka qarshi kurashning samarali modeli sifatida profilaktikaga ustuvor ahamiyat berish keng e'tirof etilgan. Klassik va zamonaviy tadqiqotlarda jinoyat sodir etilganidan keyin jazo qo'llashga nisbatan, jinoyat sodir bo'lishidan avval uning sabab va shart-sharoitlarini barvaqt aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan maqsadli faoliyat – profilaktika ancha samarali ekani ta'kidlanadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining jinoyatlarning oldini olish bo'yicha qo'llanmalarida ham jinoyatchilikka qarshi kurash *"preventiv, bilimga asoslangan, ko'p sohali va hamkorlikka tayangan"* strategiya sifatida baholanib, repressiv choralarga biryozlama tayanishdan ko'ra, profilaktik yondashuv ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ham maqbul ekani qayd etiladi [2]. BMT materiallarida profilaktikaning subyektlar tizimi, davlat organlari bilan bir qatorda, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlarini ham qamrab olishi,

ularning vazifasi aholi uchun xavfsiz va barqaror muhit yaratishdan iborat ekanligi alohida qayd etilgan [2].

Shu bilan birga, milliy qonunchilik normalari va ilmiy doktrina o'rtasidagi ayrim nomutanosibliklar mazkur tamoyillarni to'liq amalga oshirish imkoniyatini cheklamoqda. Xususan, *"Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"*gi qonunda qator tushunchalarning doktrinal mazmuni yetarli darajada ochib berilmagan; profilaktika turlari va choralarining tasniflanishi mukammal emas; vakolatli subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mexanizmi shakllantirilmagan; yakka profilaktika choralarini qo'llashda inson huquqlarini ta'minlovchi protsessual kafolatlar yetarlicha ishlab chiqilmagan. Yangi O'zbekiston sharoitida Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan *"jazodan keyin emas, jinoyatdan oldin"* tamoyilini hayotga tatbiq etish uchun profilaktika tizimini zamonaviy talablar asosida institutsional va huquqiy jihatdan takomillashtirish dolzarb ahamiyatga ega.

Kriminologiya fanining klassik manbalarida jinoyatchilikning oldini olish, asosan, umumiy va yakka (individual) profilaktika yo'nalishlariga ajratib o'rganiladi [3; 4]. Umumiy profilaktika deganda, muayyan shaxsga qaratilmagan holda, keng ijtimoiy muhitda huquqbuzarlik sodir etilishiga imkon beradigan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan kompleks choratadbirlar tushuniladi. Ilmiy adabiyotlarda umumiy profilaktikaning tipik ko'rinishlari sifatida qonunchilik va boshqaruv islohotlari, ta'lim-tarbiya muassasalarida intizomni mustahkamlash, huquqiy targ'ibot va ma'rifat ishlari, xavfli hududlarda jismoniy va texnik nazoratni kuchaytirish kabi ommaviy ta'sir choralari qayd etiladi [3]. Shu ma'noda, umumiy profilaktika butun jamiyat yoki muayyan ijtimoiy qatlam darajasida amalga oshiriladigan profilaktik faoliyat bo'lib, uni amalga oshiruvchilar qatoriga parlament, hukumat, vazirlik va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, ta'lim muassasalari, nodavlat tashkilotlar va mahallalar kabi keng qamrovli subyektlar kirishi mumkin [3].

Yakka profilaktika esa huquqbuzarlik sodir etgan yoki huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan aniq shaxslarga nisbatan manzilli ta'sir

choralarini anglatadi. Ilmiy adabiyotlarda u “ma’lum shaxsga salbiy ta’sir ko’rsatuvchi omillarni aniqlash va bartaraf etish, uning xulq-atvorini tuzatish hamda qayta huquqbuzarlik sodir etish ehtimolini pasaytirishga qaratilgan tizimli faoliyat” sifatida baholanadi [3]. Yakka profilaktika doirasida rasmiy ogohlantirish berish, profilaktik suhbat o’tkazish, ijtimoiy-iqtisodiy ko’mak (*ishga joylash-tirish, qayta o’qitish, turmush sharoitini yaxshilash*), ma’lum muddat nazorat o’rnatish, zarurat bo’lganda huquqiy ta’sir choralari qo’llash kabi mexanizmlar amalga oshirilishi mumkin. Ushbu yo’nalish, asosan, ichki ishlar organlari, probatsiya, prokuror, sud va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi subyektlar hamda tarbiya va nazorat funksiyalarini amalga oshiruvchi tuzilmalar tomonidan yuritiladi [3; 4].

Umumiy va yakka profilaktika bilan bir qatorda, jinoyatchilikning muayyan turlarini oldini olishga qaratilgan maxsus profilaktika hamda shaxslarning jabrlanuvchiga aylanib qolish ehtimolini kamaytirishga qaratilgan viktimologik profilaktika kategoriyalari ilmiy muomalada keng qo’llaniladi. Ayrim olimlar umumiy va maxsus profilaktikani keng ma’noda ijtimoiy profilaktika doirasida, yakka va viktimologik profilaktikani esa maxsus-kriminologik profilaktika doirasida talqin qiladi [4]. Viktimologik profilaktika jabrlanuvchi (yoki ehtimoliy jabrlanuvchi)ning o’rniga e’tibor qaratib, fuqarolarning o’zini himoya qilish qobiliyatini oshirish, jabrlanuvchiga aylanishga olib keluvchi holatlarni bartaraf etish, shuningdek jabrlanuvchilarga psixologik va huquqiy yordam ko’rsatish choralari qamrab oladi [9]. Maxsus profilaktika esa jinoyatlarning muayyan turiga (*masalan, korruptsiya, yoshlar jinoyatchiligi, oilaviy zo’ravonlik va h.k.*) qarshi ixtisoslashgan tarzda kurashishni anglatadi. Bunda huquqbuzarliklar dinamikasi va determinantlari tahlil qilinib, maxsus profilaktik mexanizmlar takomillashtiriladi.

Amaliyot nuqtai nazaridan umumiy, maxsus, yakka va viktimologik profilaktika bir-biri bilan uzviy bog’liq bo’lib, profilaktika ta’sirining turli darajalarini tashkil etadi. Biroq, milliy qonunchilikda ushbu toifalarning aniq huquqiy ta’riflari va chegaralari to’liq belgilanmagani turli talqinlar va qonunni qo’llashda bir xil yondashuvning shakllanmasligiga sabab bo’lmoqda [6].

Profilaktika chora-tadbirlarini turli mezonlar asosida tasniflash mumkin. Ilmiy manbalarda tashkiliy, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tarbiyaviy, axborot-ma’rifiy hamda ma’muriy-majburlovchi shakllar alohida keltiriladi. Masalan, S.S.Simonova profilaktika shakllarini tashkiliy, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, axborot-ma’rifiy, ma’muriy-majburlovchi toifalarga ajratib tahlil qiladi [5]. Ushbu yondashuvga muvofiq, profilaktika kompleks xarakterga ega bo’lib, muayyan turdagi profilaktik faoliyatni amalga oshirishda bir vaqtning o’zida turli shakldagi ta’sir choralari qo’llanilishi mumkin.

Biroq, amaldagi qonunchilikda profilaktika shakllarining mustaqil huquqiy tasnifi berilmagan. “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to’g’risida”gi qonunning 6-moddasida profilaktika turlari sanab o’tilgan bo’lsa, 23, 29 va 44-moddalarda profilaktika choralari ko’proq tartibsiz ro’yxat shaklida ifodalangan. Bu holat tur-shakl-usul tushunchalarining aralashib ketishiga olib kelmoqda. Ilmiy jihatdan esa profilaktika turlari va shakllarini alohida mezonlar asosida farqlash metodologik nuqtai nazardan to’g’ri bo’ladi [5].

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqadigan bo’lsak, O’zbekiston qonunchiligida profilaktika turlari va shakllari umumiy tarzda e’tirof etilgan bo’lsa-da, huquqiy ta’rif va aniq tasnifning yetishmasligi nazariya va amaliyotda “*kategoriyalar chalkashligi*” muammosini keltirib chiqarmoqda [6]. Shuningdek, umumiy va yakka profilaktika doiralarning aniq ajratilmagani, shakllar tizimining qonun darajasida belgilanmagani sohada yagona metodologik yondashuvni ta’minlashga to’sqinlik qiladi. Shu sababli qonunchilikni konseptual takomillashtirish zarur.

Amaldagi qonunchilik tahlili huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida quyidagi asosiy muammolar mavjudligini ko’rsatadi:

Tushunchalarning noaniqligi (kategorial muammo). “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to’g’risida”gi qonunda umumiy, maxsus, yakka va viktimologik profilaktika atamaları ishlatilsa-da, ularning huquqiy ta’riflari berilmagan. Doktrinada esa ushbu tushunchalarga doir qarashlar turlicha: ayrim manbalarda viktimologik profilaktika umumiy profilaktika doirasida, boshqalarida esa mustaqil tur sifatida baholanadi [4; 9]. Bu holat qonun qo’llash amaliyotida bir xil tushunishni qiyinlashtiradi.

Umumiy va yakka profilaktika o'rtasidagi chegaraning noaniqligi. "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunda umumiy profilaktika 22-moddada, yakka profilaktika 28-moddada nazarda tutilgan bo'lsa-da, ularning qamrovi keskin farqlanmagan. Shu sabab ayrim umumiy tadbirlar (masalan, aholini huquqiy tarbiyalash) bilan yakka tadbirlar (shaxs bo'yicha tahdidni baholash, ro'y-xatga olish) amaliyotda chalkashib ketishi mumkin. Qonunda umumiy profilaktikaning shaxsga qaratilmaganligini, yakka profilaktikaning esa aniq shaxs bo'yicha maxsus ma'lumotlarga tayanishini ochiq ifodalovchi normalar yetarli emas [6].

Profilaktika shakllarining tartibsiz tasnifi. "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonun matnida profilaktika shakllari yagona klassifikatsiya asosida berilmagan, choralar ayrim moddalarda aralash holda sanab o'tilgan. Ilmiy adabiyotlarda shakllarni tizimlashtirish takliflari mavjud bo'lsa-da [5], qonunchilikda shakllarni turlardan farqlovchi mezonlar aks etmagani "tur-shakl-usul iyerarxiyasi noaniqligi"ni keltirib chiqaradi [6].

Subyektlar vakolatlarining parchalanishi va takrorlanishi. "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunda profilaktika subyektlari keng qamrovda belgilagan, biroq qaysi subyekt qaysi turda yetakchi ekani va vakolatlarning funksional taqsimoti aniq ifodalanmagan [6]. Bu esa amaliyotda fragmentatsiya va dublikatsiya (takrorlanish) holatlarini kuchaytiradi.

Samaradorlikni baholash mezonlarining ishlanmaganligi. Profilaktika tadbirlari natijadorligini baholash uchun indikatorlar va mezonlar tizimi zarur. Xalqaro tajribada jinoyatchilik dinamikasi, xavf guruhlari ulushi, aholining xavfsizlik hissi kabi ko'rsatkichlar qo'llaniladi [5]. Milliy qonunchiligimizda esa profilaktika samaradorligini baholash bo'yicha norma va metodika mavjud emas.

Yakka profilaktikada inson huquqlari kafolatlarining yetarli emasligi. Yakka profilaktika choralari ayrim hollarda shaxs huquq va erkinliklariga aralashuvni anglatadi. Shu sabab ularni qo'llashda qo'shimcha protsessual kafolatlar talab etiladi. Amalda qarorning asoslantirilgan shakli, qaror nusxasini berish muddati, shikoyat qilish mexanizmi, ma'lumotlarni saqlash muddati va ularni o'chirish/anonimlashtirish tartibi kabi masalalar qonun darajasida yetarlicha bayon

etilmagan. Jahon amaliyotida profilaktik ta'sir "preventive justice" tamoyillari asosida, qonuniy asos va sud nazorati talablari bilan chambarchas bog'lanadi [2].

Axborot tizimlari va idoralararo ma'lumot almashinuvining yetarlicha tartibga solinmaganligi. Raqamli boshqaruv sharoitida profilaktika faoliyati integratsiyalashgan ma'lumotlar bazasisiz samarali bo'lishi qiyin. "Elektron davlat" va "mahallabay" mexanizmlar doirasida xavf xaritalarini yaratish ehtiyoji ortib bormoqda [6]. Biroq, qonunchilikda axborot almashinuvi, ma'lumotlarga kirish huquqi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish mexanizmi maxsus tartibga solinmagan.

Kasbiy tayyorgarlik muammosi. Profilaktika subyektlari doirasi keng bo'lgani bilan, ularning barchasi bir xil kasbiy kompetensiyaga ega emas. Mahalla va ta'lim rahbarlari profilaktikaga daxldor ma'lumotlar bilan ishlasa-da, ularning kriminologik tayyorgarligi va uslubiy ko'nikmalarini oshirish tizimi yetarlicha shakllanmagan. Bu holat profilaktika subyektlarining kasbiylashuvi muammosini keltirib chiqaradi [6].

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun qonunchilikni konseptual takomillashtirish, institutsional hamkorlik mexanizmlarini mustahkamlash, inson huquqlari kafolatlarini kuchaytirish, axborot tizimlarini huquqiy jihatdan tartibga solish va kadrlar tayyorgarligini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar talab etiladi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida qonunchilikka quyidagi yo'nalishlarda o'zgartish va qo'shimchalar kiritish taklif etiladi:

1. Profilaktika turlarining huquqiy ta'riflarini joriy etish. "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunning 3-moddasi "Asosiy tushunchalar" qismiga umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikaning rasmiy ta'riflarini kiritish maqsadga muvofiq. Bu, birinchi navbatda, kategoriyalar bir xil talqin qilinishiga xizmat qiladi va profilaktika turlarini doktrinal jihatdan barqaror huquqiy kategoriya sifatida mustahkamlaydi [1; 4].

2. Umumiy va yakka tartibdagi profilaktika chegaralarini aniq belgilash. "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunning 22 va 28-moddalariga umumiy profilaktika shaxsga qaratilmagan ommaviy choralar ekani, yakka profilaktika esa aniq shaxsga nisbatan maxsus ma'lumotlarga

tayangan individual choralar majmui ekani haqida ochiq normalar kiritilishi lozim [1; 6].

3. Profilaktika shakllarining yagona klassifikatsiyasini mustahkamlash. “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to’g’risida”gi qonunga 6¹-modda kiritib, tashkiliy, huquqiy, axborot-ma’rifiy, ijtimoiy-iqtisodiy va majburlovchi-cheklovchi shakllarni tizimlashtirilgan tarzda belgilash, shuningdek 23, 29, 44-moddalardagi choralarni ushbu shakllar bo’yicha guruhlash zarur [5].

4. Subyektlar vakolatlarini funksional taqsimlash. “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to’g’risida”gi qonunning 7–9-moddalarini takomillashtirib, subyektlar vakolatlarini “funktional karta” asosida aniq taqsimlash, idoralararo muvofiqlashtirishni institutsional jihatdan mustahkamlash maqsadga muvofiq [6].

5. Samaradorlik indikatorlarini joriy etish. “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to’g’risida”gi qonunga 4¹-modda kiritib, profilaktika samaradorligini baholash indikatorlari tizimini joriy etish va batafsil metodikani Hukumat darajasida tasdiqlashni nazarda tutish zarur [5].

6. Yakka profilaktikada inson huquqlari kafolatlarini kuchaytirish. “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to’g’risida”gi qonunning 34–39-moddalari doirasida qaror qabul qilishning asoslantirilgan tartibi, qarorni shaxsga yetkazish, shikoyat qilish, ma’lumotlarni saqlash va o’chirish/anonimlashtirish kabi kafolatlarni aniq belgilash “preventive justice” tamoyiliga muvofiq huquqiy jarayonni ta’minlaydi [2].

7. Axborot tizimlari va ma’lumot almashinuvini tartibga solish. “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to’g’risida”gi qonunga 20¹-modda kiritilib, profilaktika subyektlari o’rtasida markazlashgan axborot tizimlari, kirish huquqlari, ma’lumotdan foydalanish maqsadi va muddatlari hamda shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish tartibi belgilanishi zarur.

8. Kadrlar tayyorgarligi va malaka oshirish talablarini joriy etish. Qonunga kiritiladigan 11¹-modda orqali profilaktika subyektlarining kasbiy tayyorgarlik standartlari, malaka oshirishning majburiy tartibi va muvofiqlashtiruvchi vakolatli organing vazifalari belgilab qo’yilishi maqsadga muvofiq [6].

Tahlillar Yangi O’zbekistonda huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida qonunchilikni va institutsional mexanizmlarni yanada takomillashtirish zarurligini ko’rsatadi. Umumiy va yakka profilaktika chegaralarini aniq belgilash, profilaktika shakllarini tizimlashtirish, subyektlar vakolatlarini funksional taqsimlash, samaradorlik indikatorlarini joriy etish, yakka profilaktikada inson huquqlari kafolatlarini kuchaytirish, axborot tizimlari va ma’lumot almashinuvini huquqiy jihatdan tartibga solish hamda kadrlar kasbiylashuvini ta’minlash sohadagi islohotlar samaradorligini belgilovchi asosiy yo’nalishlardir. “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to’g’risida”gi qonun yuqorida keltirilgan takliflar asosida isloh qilinsa, “jazodan keyin emas, jinoyatdan oldin” tamoyiliga muvofiq holda amaliyotda to’liq ishlaydigan huquqiy mexanizm sifatida qayta shakllanishi mumkin.

Foydalanilgan manbalar

1. O’zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to’g’risida” 2014-yil 14-maydagi O’RQ–371son qonuni // O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami. – 2014. – № 20. – 221-modda.
2. United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC). Handbook on the Crime Prevention Guidelines: Making them Work. – Vienna: UNODC, 2010.
3. Теоретические положения по теме 3.3.7 «Понятие, виды, формы и уровни профилактики преступлений». – Минск: Академия МВД Республики Беларусь. – С. 1–7.
4. Криминология: Учебник для вузов / под общ. ред. А. И. Долговой. – 3-е изд., перераб. и доп. – М.: Норма, 2005. – С. 435–455.
5. Симонова С. С. Теория и практика профилактики преступлений: Учебное пособие. – Волгоград: РАНХиГС, 2019. – С. 9–11.
6. Umarov Z. R. Huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi tushunchasiga oid nazariy tahlil // Uzbek Scholar Journal. – 2024. – № 35. – B. 10–11.
7. Zaripov Z. S., Ismailov I. Kriminologiya. Umumiy qism: Darslik. – Toshkent: O’zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 1996. – 228 b.
8. Zaripov Z. S. va boshq. Kriminologiya: Darslik. – Toshkent: O’zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2006.
9. Niyozova S. S. Kriminologiyada viktimologik profilaktikaning o’rni, maqsad va vazifalari // Ilmiy maqola. – Toshkent, 2023. – Elektron manba